ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

OLIY TA'LIM TIZIMIDA LOYIHA BOSHQARUVINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA BOSHQARUVDA XOLISLIKNI TA'MINLASH

Yodgorova Nafisa Baxriddinovna
Sharq universiteti katta o'qituvchisi
Orcid: 0009-0007-5003-817X
Email: nyodgorova91@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida loyiha boshqaruvining raqamli transformatsiyasi jarayonlari hamda ushbu jarayonlarning boshqaruvda xolislikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda loyiha boshqaruvini raqamlashtirish orqali qarorlar qabul qilishda inson omilining salbiy ta'sirini kamaytirish, ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini oshirish hamda boshqaruv jarayonlarida adolat tamoyillarini mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы цифровой трансформации управления проектами в системе высшего образования, а также роль этих процессов в обеспечении объективности управления. В исследовании рассматриваются возможности снижения негативного влияния человеческого фактора при принятии управленческих решений за счёт цифровизации проектного управления, повышения открытости и прозрачности информации, а также укрепления принципов справедливости в управленческих процессах.

Abstract: This article analyzes the processes of digital transformation of project management in the higher education system, as well as the role of these processes in ensuring objectivity in management. The study examines the possibilities of reducing the negative impact of the human factor in managerial decision-making through the digitalization of project management, increasing the openness and transparency of information, and strengthening the principles of fairness in management processes.

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, oliy ta’lim, ta’limdagi innovatsiyalar, shaffoflik, xolislik va adolatlilik prinsiplari.

Ключевые слова: цифровизация, высшее образование, инновации в образовании, прозрачность, беспристрастность, справедливость.

Keywords: digitalization, higher education, innovations in education, transparency, impartiality, fairness.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida oliy ta’lim tizimi oldida ta’lim sifati, boshqaruv samaradorligi hamda shaffoflikni ta’minlash bilan bog‘liq yangi va murakkab vazifalar yuzaga kelmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ta’lim, ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni samarali boshqarish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda loyiha boshqaruvining an’anaviy usullaridan raqamli yechimlarga o‘tish zarurati tobora ortib bormoqda.

Elektron “aqlli” qurilmalar va sensorlar, bulutli texnologiyalar, ilg‘or tahliliy vositalar kabi rivojlangan texnologiyalar oliy ta’lim mazmunini o‘zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish orqali shaffoflik, xolislik va adolatlilik prinsiplarini ta’minlash uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga, o‘qituvchining raqamli savodxonligi muhim ahamiyatga ega, bu o‘qituvchining kerakli natijalarga erishish uchun mavjud texnologiya va qurilmalardan foydalangan holda bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish orqali talabalarga o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishni o‘rgatish majburiyatini oladi. Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish strategiyasini ishlab chiqadigan universitetlar talabalar va

DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar uchun ko‘plab yangi imkoniyatlarni yaratishi mumkin [1].

Adabiyotlar tahlili

Respublikamiz olimlaridan V.Qobulov, M.Ziyoxo‘jayev, A.Abduqodirov, M.Aripov, Sh. Nazirov, X.Nigmatov, U.Yuldashevlar o‘zlarining tadqiqot ishlarida ta’limni boshqarishni raqamlashtirish muammolarini tadqiq etishgan. Ushbu masala bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish jarayoni odatda ma’lum hajm va murakkablikdagi bilimlar, ko‘nikmalar, tajriba va malakalarga asoslanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish orqali ta’limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi:

- loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislar tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ta’lim tizimini yaratish;
- oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;
- raqamli iqtisodiyotni har tomonlama o‘rganish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish;
- loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Shu bois respublikamizda raqamli iqtisodiyot dasturi yaratilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish maqsad raqamli boshqarish axborot infratuzilmasini yaratish, shuning uchun har bir universitet o‘qituvchisi o‘z yo‘l xaritasini ishlab chiqishi, bu esa ta’lim uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish sohasida ishlaydigan kadrlar tayyorlanishi va o‘qitilishi kerak. Raqamli effektlarning tarqalishi tadbiq etilishiga qarab farq qiladi, shuning uchun o‘qitish loyihalarni boshqarishni raqamlashtirishga

DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

mos kelishi kerak. Shuning uchun, oliy ta’lim muassasalarida loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish orqali shaffoflik, xolislik va adolatlilik prinsiplarini ta’minlash va mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamlashtirishni rivojlantirishning qator muammolari va istiqbollarini aniqlash imkonini berdi [2].

Tahlil va natijalar

Raqamlashtirishning rivojlanishi loyihalarni boshqarishga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartiradi, yangi tashkiliy boshqarish tuzilmalarini shakllantirishni rag‘batlantiradi. Raqamli boshqarish formatlarini joriy etish, shuningdek, raqamli boshqarish arxitekturasida murakkab o‘zgarishlarni, boshqarishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o‘zgarishlarni nazarda tutadi. O‘zbekistonda loyihalarni boshqarishni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarning muhim roli aniq, chunki ulardan foydalanish bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirishga, xodimlarning ilmiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilimlarni qo‘llashga tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, loyihalarni boshqarishni raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning zaruriy shartidir. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayonida jamiyat uchun yangi xavf-xatarlar paydo bo‘lishini unutmaslik kerak.

Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish orqali shaffoflik, xolislik va adolatlilik prinsiplarini ta’minlash yaqin istiqbollari uchta belgilovchi yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

- birinchidan, loyihalarni boshqarishni yuqori sifatli dasturiy ta’minot resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi raqamli axborot tizimlari yaratiladi;
- ikkinchidan, bu loyihalarni boshqarishda boshqaruvchilarning bilvosita o‘zaro hamkorligini nazarda tutuvchi raaqamli axborot texnologiyalarni joriyga imkoniyat yaratiladi;

DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

- uchinchidan, loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish boshqaruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta’lim (e-leaming) tashkil etiladi [3].

Xulosa va takliflar

Loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish oily ta’lim muassasasini katta darajada o‘zgartiradi va loyihalarni boshqarishda yangi shakl vaa mettodlarini talab qiladi. Ular loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, shu bilan birga xodimlar oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Xulosa o‘rnida oily ta’lim muassasalarida loyihalarni boshqarishni raqamlashtirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g‘oyalarni takomillashuviga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki mazkur tadqiqotda oliy ta’lim tizimida loyiha boshqaruvining raqamli transformatsiyasi jarayonlari hamda ularning boshqaruvda xolislikni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, loyiha boshqaruvini raqamlashtirish boshqaruv jarayonlarining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirish orqali qarorlar qabul qilishda inson omilining subyektiv ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. 2019-yil 29-aprel.

[2] Tursunov M.O. O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirish: yutuqlar va muammolar.

DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 **Vol. 1 No. 1 (2026)**

[3] Умарова М. Х. К вопросу о цифровизации образования в Республике Узбекистан. Наука и образование сегодня, 2020, (12 (59)), 42-43.

DOI: https://doi.org/10.66493/q52k6g44
© Sharq universiteti, 2026